

FRANSIYA TARIXIDA GENRIX IV NING DINIY BAG‘RIKENGLIK SIYOSATI

Tojiboyeva Senzora Ahmadjon qizi
Toshkent Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot Genrix IV ning protestantlikdan katoliklikka o‘tishi, Nant farmonining siyosiy va diniy mohiyati, shuningdek, fuqarolar urushlari davrida yuzaga kelgan keng ko‘lamli dehqon qo‘zg‘olonlari va ijtimoiy noroziliklarning monarxiya siyosatiga ta‘sirini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *Genrix IV; Nant farmoni; gallikanizm; Fransuz diniy urushlari; dehqon qo‘zg‘olonlari; Katolik Ligasi; XVI asr Fransiya*

Kirish

XVI asr oxiri Fransiya tarixida chuqur diniy, siyosiy va ijtimoiy inqirozlar bilan ajralib turadi. 1562-yildan boshlab mamlakat deyarli uzluksiz fuqarolar urushlari girdobida qoldi. Ushbu urushlar nafaqat protestant va katolik jamoalari o‘rtasidagi diniy qarama-qarshiliklarni, balki monarxiya hokimiyati, gallikan cherkovi va jamiyatning asosiy ijtimoiy qatlamlari o‘rtasidagi munosabatlarni ham tubdan o‘zgartirdi.

Genrix IV ning 1593-yilda Rim-katolik dinini qabul qilishi va 1598-yilda Nant farmonini e‘lon qilishi ushbu uzoq davom etgan inqirozni tugatishga qaratilgan hal qiluvchi bosqich bo‘ldi. Biroq bu qarorlar faqat siyosiy pragmatizm mahsuli emas, balki gallikanizmning an‘anaviy tamoyillari va jamiyatdagi chuqur ijtimoiy noroziliklar bilan chambarchas bog‘liq edi.

Genrix IV ning e‘tiqoddan voz kechishi

Genrix IV tomonidan o‘zining kalvinistik e‘tiqodidan voz kechib, Rim-katolik dinini qabul qilish qarori yengil qabul qilingan emas edi[1]. U tarixchilarning uzoq vaqt davomida ta‘kidlab kelganidek, hech qachon “Parij har qanday qurbonliklarga arziydi” (fr. Paris vaut bien une messe) degan iborani aytmagan[1-2]. Bu bayonot Liga tomonidan olib borilgan targ‘ibot mahsuli bo‘lib, ular Navarralik Genrixning e‘tiqodini o‘zgartirishini na samimiy, na chin deb ko‘rsatishga intilgan va bu orqali uning taxtni qo‘lga kiritishini kinoyaviy hiyla sifatida talqin qilganlar. 1593-yil iyul oyida Genrix nimalarni o‘ylaganini to‘liq bilish imkonsiz bo‘lsa-da, mavjud barcha dalillar uning dinini almashtirishi samimiy e‘tiqod asosida amalga oshirilganini ko‘rsatadi[3]. Garchi dogma va ta‘limotlar uning uchun hech qachon kuchli nuqta bo‘lmagan bo‘lsa-da, Navarralik Genrix din yo‘lida o‘z hayotini ko‘p bora xavf ostiga qo‘ygan, deyarli yigirma yil davomida jang maydonida va undan tashqarida o‘z e‘tiqodi uchun kurashgan shaxs bo‘lganligi aniq. Uni prinsipsiz yoki dinga befarq shaxs sifatida ko‘rsatish mavjud dalillarga zid. Xuddi shuningdek, ayrim olimlar ilgari surgan[4], Genrix zamonaviy fikrlovchi bo‘lib, davlat manfaatlari, tartib va siyosatni din ustidan ustun qo‘ygan degan qarash ham unchalik asosli emas. Shubhasiz, Genrixning e‘tiqoddan voz

kechish qarori siyosiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, fuqarolar urushlariga barham berish va monarxiya hokimiyatini tiklashga qaratilgan edi. Biroq bundan uning konversiyasi nosamimiy yoki kinoyaviy bo‘lgan degan xulosaga kelmaslik lozim. Zamondoshlari uchun uning e‘tiqoddan voz kechishi paytida aniq bo‘lmagan narsa shuki, Genrix IV haqiqatan ham tartibni tiklash va barcha fransuz erkaklari va ayollarini yagona din ostida birlashtirish orqali qon to‘kilishini to‘xtatish rejasiga ega edi[5]. Klovis davridan beri barcha fransuz qirollarining dini bo‘lib kelgan katolik e‘tiqodi - “bitta qirol, bitta e‘tiqod, bitta qonun” - maqsadi yo‘lida Genrix IV uchun ham avvalgi hukmdorlar singari muhim edi. U vaziyat taqozosi bilan Gallika monarxiyasiga moslashish uchun o‘z diniy majburiyatlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lganidek, uning fuqarolari ham qurollarini tashlab, uzoq muddatli tinchlik uchun zarur bo‘lgan gallika birligi va totuvligini qayta tiklashlari talab etildi[6].

Fuqarolar urushi va xalq noroziligining kuchayishi

Genrixni bunday qarorga majbur qilgan yana bir muhim omil fuqarolar urushlariga nisbatan xalq noroziligining kuchayishi, ayniqsa so‘nggi o‘ttiz yil davomida iqtisodiy izdan chiqish va siyosiy beqarorlikning og‘ir yukini ko‘targan quyi tabaqalar orasida kuchli bo‘lganidir[5]. 1593-yil yoziga kelib, butun qirollik bo‘ylab dehqonlar turli guruhlariga birlashib, qirollik tarafdorlari va Liga qo‘shinlarining omborlari va donxonalarga qilayotgan talon-torojlarini, shuningdek, hosil yig‘im-terimini izdan chiqarishni to‘xtatishga urina boshladilar[7]. Dehqon otryadlari allaqachon Bretan va Normandiyada askarlar guruhlari va alohida zodagonlarga hujum qilgan edilar, 1593-yilda esa Burgundiyaning uzumchilik hududlarida qurollangan qishloq aholisi harbiy bo‘linmalar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklardan o‘zlarini himoya qilish uchun uyushdi.

Pommard, Volnay, Meursault, Auxey, Santenay, Saint-Aubin, Gamay, Beaune va Nolay qishloqlarining uzum yetishtiruvchilari birlashib, askarlar qishloqqa yaqinlashganini ko‘rgan zahotlari signal berishga kelishib oldilar. Dijon parlamenti sudyasi Gabriel Breunotning ma‘lumotiga ko‘ra, ular Mayenne gersogi uchun subsidiyalar yig‘ishga urinayotgan o‘ttiz nafar Liga askarini o‘ldirgan edilar[8]. Bu dehqonlarning harbiy kuchlar va ularning mulklari tomonidan qilinishi mumkin bo‘lgan tajovuzlardan qo‘rquvi Breunot uchun yetarlicha asosli bo‘lib tuyuldi. U hatto Dijon yaqinidagi qishloqlardan kelgan dehqonlar o‘z uylaridan buzib olingan yog‘ochlar orilgan aravalar bilan Burgundiya poytaxti ko‘chalarida yurish qilayotganini ko‘rganini xabar qilgan[9]. Ular nega o‘z uylaridan yog‘ochni sotayotganlari so‘ralganda, askarlar tomonidan yoqib yuborilib vayron qilinishidan ko‘ra, o‘zlari buzib sotish afzalroq ekanini aytganlar. Dehqonlar qo‘zg‘oloni tez orada 1594-yil boshlarida shimol va janub tomonga tarqaldi. Janubda mingdan ortiq dehqonlar o‘zlarining qizil bosh kiyimlari tufayli “Bonnet Rouges” deb atalib, Tournus va Mâcon oralig‘ida qo‘shinlar harakatini to‘xtatishga safarbar bo‘ldilar. Shimolda esa Beaune va Dijon hududlaridagi uzum yetishtiruvchilar urushni tugatish va qirol bilan kelishuvga erishish uchun o‘z hokimiyatlariga bosim o‘tkaza boshladilar.

Bu uzum yetishtiruvchilar o‘n yillar davomida shahar elitalari uchun muhim tayanch bo‘lib kelgan, fuqarolar urushlari boshlanishida protestantizmga qarshi muxolifatning asosiy

tayanchi bo‘lgan va Liga tashkil topganidan buyon uning ashaddiy tarafdorlari hisoblangan. Endilikda esa Genrix IV e‘tiqoddan voz kechib, katolik jamoasiga qo‘shilganidan so‘ng, ular davom etayotgan beqarorlik va fuqarolar urushi sharoitida qarshilikni davom ettirish uchun asos ko‘rmadilar.

Ijtimoiy zulm va uning natijasi

Urushlarga qarshi eng jiddiy xalq qarshiligi janubi-g‘arbda, Limuzen va Perigordagi Dordogne vodiysi hududlarida, shuningdek Agenaisning Lot va Garonna vodiylarida yuz berdi. Bu hududlardan o‘tgan o‘nlab yillar davomida ko‘plab yirik janglar bo‘lib o‘tgan va minglab askarlar harakatlangan edi[10].



1-rasm. 1593–1594-yillarda dehqon qo‘zg‘olonlari yuz bergan hududlar[1]

Bu yerda dehqonlar yanada ko‘proq uyushib, Fransiyaning boshqa hududlariga nisbatan ham qirollik, ham Liga qo‘shinlari uchun ancha xavfli raqiblarga aylandilar. O‘zlarini

dastlabki tashabbuslari — vaziyatdan foydalanib, o‘zini himoyalash uchun qurollanish — sababli “Tard-Avisez” yoki “Tacones” deb atagan bu dehqonlar, raqiblari tomonidan ijtimoiy tafovutlarni ham nazarda tutgan holda kamsituvchi tarzda “Croquants” (“qishloq tentaklari”) deb ataldilar[11]. Bu dehqonlarning jiddiy shikoyatlari borligi shubhasiz edi. Limuzen va Perigorddagi Liga gubernatorlari o‘z qishloqlarida joylashtirilgan qo‘shinlar orqali shaxsiy terror va talonchilikning yangi me‘yorlarini joriy etgan, mulklarni musodara qilgan va haqiqiy majburiyatlardan ancha yuqori senyorial to‘lovlarni talab qilganlar. Perigordda tarqatilgan bir varaqada ularning ahvoli quyidagicha tasvirlangan[12]:

“Mamlakat banditlarning ulkan to‘dasi tomonidan butkul vayron qilingan. Bir tomondan, ikkinchi tomondan askarlarni joylashtirishdan qayta-qayta jabr ko‘rgan kambag‘al dehqonlar ocharchilikka mahkum etildi. Ularning xotinlari va qizlari zo‘rlangan, chorva mollari o‘g‘irlangan. Ular yerlarini tashlab ketishga majbur bo‘ldilar va ochlikdan nobud bo‘ldilar, ko‘plari esa ularga yuklatilgan haddan tashqari soliqlar va subsidiyalarni to‘lay olmagani uchun qamoqqa tashlandi.”

Bu zo‘ravonliklar zanjiri Sarlatdan bo‘lgan kanon Jan Tard tomonidan ham tasdiqlanib, u “jentilomlar (fr gentilshommes) ularni ikki yoki uch baravar ortiq ijara haqini to‘lash uchun qamoqqa tashlaganini, to‘lovdan keyin kvitansiya berishdan bosh tortganini va har jihatdan ularni qul sifatida ko‘rganini” shikoyat qilgan[13]. Janubi-g‘arbdagi o‘nlab mahal liy dehqon qo‘zg‘olonlari o‘zaro muvofiqlashtirilmagan bo‘lsa-da, ular bir qator umumiy maqsadlarni bo‘lishar edi:

1. cherkov imtiyozlarini noto‘g‘ri boshqarishga barham berish;
2. zodagonlar tomonidan amalga oshirilayotgan adolatsiz va noqonuniy zulmga chek qo‘yish;
3. dehqonlar huquq va imtiyozlarini himoya qiluvchi hukumat vakilini tayinlash;
4. taille1 solig‘ini urushdan oldingi darajaga tushirish;
5. zodagon bo‘lmagan yerlarni sotib olgan zodagonlar ham oddiy xalq kabi soliq to‘lashini talab qilish;
6. qirollik éluslari (qirollik tomonidan tanlangan soliqchilar) o‘rniga mahalliy soliq baholovchilarni tayinlash;
7. zodagonlarning sud qarorlariga noqonuniy ta’sir o‘tkazishiga chek qo‘yish;
8. barcha yangi soliqlarni bekor qilish.

Dehqonlarning talablarida moliyaviy va antisinyorial unsurlar mavjud bo‘lgani aniq. Ularning ritorikasi va polemikasi aristokratik tartibni ag‘darishga qaratilgan radikal ijtimoiy inqilobni qo‘llab-quvvatlayotgandek ko‘rinsa-da, ularni aslida eng ko‘p tashvishga solgan narsa fuqarolar urushlari keltirib chiqargan tartibsizlik va betartiblik sharoitida yuzaga kelgan qo‘pol senyorial suiiste’ mollar va noqonuniy haddan oshishlar edi. Aynan shu holat protestant va katolik dehqonlarini birlashtirdi — ular urushni butunlay tugatib, bunday suiiste’ mollardan xoli bo‘lgan an’anaviy senyorial tuzumni tiklashni xohladilar. Shu bois, professor Jon Salmon ta’kidlaganidek, qo‘zg‘olonlarga sabab bo‘lgan narsa senyorial tizimning odatiy boshqaruvi

emas, balki fuqarolik anarxiyasi sharoitida yuzaga kelgan qo‘pol suiiste‘mollar edi. Dehqonlarning og‘ir ahvoli o‘ttiz yillik fuqarolar urushining bevosita natijasi edi.

Qo‘zg‘olonlarning natijalari

Avvalo, ular norozilik bildirish va ayrim hollarda hatto jang qilish uchun dehqonlarning katta guruhlarini yig‘ishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu yig‘inlarning aksariyati 100–200 kishidan oshmagan bo‘lsa-da, eng yiriklari nihoyatda ta‘sirli edi. 1594-yil may oyida Limuzenda joylashgan Sen-Ir‘ye va Sen-Leonar shaharlarining devorlari tashqarisida safarbar etilgan dehqonlar kuchi 2 000 kishini tashkil etgan. Sen-Priest-Ligurda besh mingdan ortiq dehqon to‘plangan bo‘lsa, 1594-yil 23-aprelda Abzak o‘rmonida yetti mingdan sakkiz minggacha dehqon yig‘ilgan. Biroq bular eng yirik dehqon yig‘inlari emas edi. 1594-yil boshida Don‘yonga 12 000 nafar dehqon to‘plangan bo‘lsa, eng katta qayd etilgan yig‘in 1594-yil may oyida Perigorddagi Berjerak yaqinidagi La Boul qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan; bu yerda 20 000 dan 40 000 nafargacha dehqon o‘z shikoyatlarini bildirish va manifest e‘lon qilish uchun to‘plangan[14].

Aytish joizki, professional qo‘shinlarga qarshi to‘qnash kelgan dehqon guruhlarining aksariyati odatda mag‘lubiyatga uchragan. Shunga qaramay, dehqonlarning keng ko‘lamli va baland ovozda ifodalangan noroziligi e‘tiborsiz qolmadi. Yuqori tabaqalarning ko‘plab vakillari dehqon manifestlarida ilgari surilgan antisinyorial ritorikani juda jiddiy qabul qilib, ijtimoiy inqilobdan qo‘rqishdi; boshqalar esa dehqonlarning shikoyatlariga ko‘proq hamdardlik bildirdi. Har ikkala holatda ham dehqon qo‘zg‘olonlari tinchlik jarayonini tezlashtiruvchi katalizator vazifasini bajardi.

1594-yil iyun oyida “Croquants” dehqonlari o‘z shikoyatlarini hal etish uchun qirol Genrix IV huzuriga elchilar yuborganlarida, qirol (kundalik muallifi Per de l’Estoile ma‘lumotiga ko‘ra) populistik ohangda, agar u shoh bo‘lib tug‘ilmaganida, o‘zi ham Croquants safiga qo‘shilgan bo‘lard, degan. Eng muhimi, u ularni tinchlantirish uchun jiddiy choralar ko‘rdi. Garchi Croquants dehqonlari o‘z huquq va imtiyozlarini himoya qiluvchi maxsus qirollik amaldorini tayinlatishga erisha olmagan bo‘lsa-da, ular to‘lamagan soliq qarzlari sezilarli darajada qisqartirildi va keyingi yillar uchun soliq yuklamasi biroz kamaytirildi. Eng asosiysi, qirol janubi-g‘arbdagi mahalliy hokimiyatlarga Croquants dehqonlariga nisbatan hech qanday jazolovchi choralar ko‘rmaslikni qat‘iyan buyurdi va bu talab, asosan, bajarildi. Shubhasiz, 1593–1594-yillardagi dehqon qo‘zg‘olonlari Genrix IV ni tinchlik bitimi tuzish va fuqarolar urushlarini tezroq tugatish zarurligiga ishonitirgan muhim omillardan biri bo‘ldi[1].

Xulosa

1593–1610 yillarda gallikanizmning qayta shakllanishi Genrix IV ning diniy konversiyasi, Nant farmoni va keng xalq noroziligi bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi. Fuqarolar urushlari sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy inqiroz monarxiyani diniy va siyosiy murosaga majbur qildi. Nant farmoni Fransiyada diniy tinchlikni vaqtincha ta‘minladi va gallikan monarxiyaning qayta tiklanishiga xizmat qildi. Dehqonlar boshidan kechirgan iztiroblar esa o‘ttiz yillik fuqarolar urushining eng og‘ir ijtimoiy oqibatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Holt, M. P. The French Wars of Religion, 1562–1629. Cambridge University Press, 2005.
2. Salmon, J. H. M. Society in Crisis: France in the Sixteenth Century. 1975.
3. Livet, G. Les guerres de religion. Paris, 1977.
4. Mariéjol, J.-H. La Réforme, la Ligue, l'Édit de Nantes. 1904.
5. Neale, J. E. The Age of Catherine de Medici. 1943.
6. Davis, N. Z. Society and Culture in Early Modern France. 1975.
7. Benedict, P. Rouen during the Wars of Religion.
8. Crouzet, D. Les guerriers de Dieu.
9. Bossy, J. Christianity in the West, 1400–1700.
10. Knecht, R. J. The French Wars of Religion.
11. Baumgartner, F. J. Change and Continuity in the French Episcopate.
12. Shennan, J. H. Government and Society in France.
13. Beik, W. Absolutism and Society in France.
14. Major, J. R. From Renaissance Monarchy to Absolute Monarchy.
15. Pernot, M. Les guerres de religion en France.